



TILSHUNOSLIK VA LINGVISTIKA: TURKUMLAR VA NAZARIY TIL

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Mahmudjonov Javohir
"Iqtisodiyot" fakulteti, 1 kurs talabasi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik va lingvistika sohasidagi turkumlar va nazariy tilning muzokaralariga bag'ishlangan nazariy ma'lumotlar, ularning o'zaro munosabatlari va o'zgaruvchanliklari haqida muhokama masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada turkumlarning tarixiy va zamonaviy tillar orasidagi farqini, ularning o'zgarmas va o'zgaruvchan xususiyatlarini, tilshunoslikning ma'nolari va izohlari tahlil qilinadi..

Kalit so'zlar. Tilshunoslik, lingvistika, turkumlar, nazariy til, muzokara, o'zgaruvchan til, o'zgarmaydigan til, konseptlar, tilning tarixiy rivojlanishi..

Аннотация: В данной статье обсуждаются теоретические данные о согласовании категорий и теоретического языка в области языкоznания и языкоznания, их взаимосвязях и вариациях. В статье анализируются различия между категориями исторического и современного языков, их устойчивые и изменяющиеся особенности, значения и объяснения языкоznания..

Ключевые слова: Лингвистика, лингвистика, категории, теоретический язык, переговоры, изменяющийся язык, неизменный язык, понятия, историческое развитие языка.

Abstract: This article discusses theoretical evidence on the agreement between categories and theoretical language in the field of linguistics and linguistics, their relationships and variations. The article analyzes the differences between the categories of historical and modern languages, their stable and changing features, meanings and explanations of linguistics.

Key words: Linguistics, linguistics, categories, theoretical language, negotiations, changing language, unchanging language, concepts, historical development of language.

Kirish. Tilshunoslik va lingvistika, insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri bo'lib kelgan. Ular, insonlarning o'zaro munaqashalarini, ma'noli aloqalarini, hamda tarixiy va zamonaviy tillar orasidagi bog'liqlarni tushuntirishda katta rol o'ynaydigan ilmiy sohalardir. Bu maqolamizda esa, turkumlar va nazariy til muzokaralariga bag'ishlangan, ularning tilshunoslik sohasidagi o'zgaruvchanliklari, xususiyatlarini va o'zaro munosabatlarini tahlil qiladi.

Tilshunoslik, turkumlar va nazariy tillarning o'zgarmas va o'zgarmaydigan



xususiyatlarini tushuntirishda yordam beradi. Nazariy til, tilning ilmiy tahlilini qilish uchun asosiy konseptlarni, qonunlarni va o'zgaruvchanliklarni ifodalaydi. Bu maqola, til va nazariy tillarning bir-biriga o'zgartiriladigan ta'sirlarini, ularning tarixiy rivojlanishini, va lingvistik muhokamalar bo'yicha o'zgaruvchanligini tahlil qiladi.

Turkumlar esa, insonlar to'plamlari o'rtasida til, madaniyat va identifikatsiya o'rinni egallashgan. Ular, o'ziga xos tillarni saqlab turib, o'zaro munosabatlarni shakllantiradigan muhim elementlardir. Maqola, turkumlar va tillar orasidagi o'zgaruvchanliklarni, ularning o'zgarmas va o'zgarmaydigan xususiyatlarini tushuntirib, turkumlar orasidagi tilshunoslikning lingvistik asoslarini bayon qiladi.

Asosiy qism: Tilshunoslik, „Lingvistika“ — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiatni, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi sohadir. Maqsadi va vazifasiga ko'ra, tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlari bor: umumiyligi tilshunoslik — tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiyligi belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha; xususiy tilshunoslik — ayrim bir til belgi-xususiyatlarini o'rganuvchi soha; amaliy tilshunoslik — tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'nalish; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqa paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so'zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi.

Mazkur yo'nalishlardan tashqari tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o'rganuvchi ko'plab tarmoq va bo'limlari bor: semasiologiya til birliklari ma'nolarini o'rganadi; fonetika va fonologiya tilning tovush qurilishini tekshiradi; leksikologiya va frazeologiya tilning lug'aviy materialini tadqiq etadi. So'z yasalishining tadqiqot obyekti so'zlarning yasalish usullari va ushbu usullarning mahsuldarligi bo'lsa, grammatika (morphologiya va sintaksis) so'z o'zgarishlarini va so'zlarning gaplar va so'z birikmalari sifatida birikishi qonuniyatlarini o'rganadi. Tilshunoslikning har bir bo'limida yanada kichikroq (maydaroq) maxsus bo'limchalar bo'lishi mumkin. Masalan, leksikologiya doirasida onomastika bo'limchasi bo'lib, u o'z navbatida antroponomika, toponimika va boshqalarga bo'linadi. Muayyan tilning hududiy farqlanishi (differensiatsiyasi)ni dialektologiya o'rganadi. Mazkur bo'limlarning har birida tilning hozirgi ahvoli va uning tarixiy taraqqiyoti tadqiq etiladi. Jahon tillari,



ularning oilalari va guruhlarini o‘rganuvchi tilshunoslik tarmoqlari: arabistika (arabshunoslik), germanshunoslik, turkiyshunoslik, slavyanshunoslik, finugorshunoslik va boshqa tillarning o‘zaro ta’sirlashuvi, yordamchi xalqaro tillarni yaratish nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammolarini interlingvistika va tarjima nazariyasi o‘rganadi.

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g‘oyaviylik)ning o‘zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongni va ijtimoiy mavjudot bo‘lmish insonning o‘zini to‘g‘ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o‘zaro aloqasi muammosi Tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o‘zida o‘rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstistik (me’yoriyuslubiy) metodlarni ko‘rsatish mumkin. Tilshunoshlikda yana maxsus tadqiqot usullari — lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellashtirish, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo‘lgan.

Tilshunoslik muammolarini o‘rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. 6-asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharxlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. 5 — 4-asrlarda yashagan Paninining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko‘tarildi. Bu asar nazmda yozilgan 3996 ta qoidadan iborat bo‘lib, unda sanskrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan. Yunonistonda til mantiqqa bog‘liq holda, shuningdek, uning grammatik qurilishi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. So‘zlarni turkumlarga ajratish Aristoteldan boshlangan. Qadimgi Yunon tilshunosligining kamoloti Iskandariyadagi, qisman Pergandagi yunon tilshunoslarining faoliyati bilan bog‘liq. Iskandariya grammatika maktabi vakillari tomonidan yunon tili grammatikasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida Lotin tilshunosligi vujudga keldi.

Xulosa. Lingvistika jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo‘q mezonlaridan biri til - aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta’lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini-ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo‘llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash



va ona tili qurilishining o‘ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni «o‘zicha» aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g‘urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

References:

1. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Wiley-Blackwell.
2. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2017). An Introduction to Language. Cengage Learning.
3. Yule, G. (2016). The Study of Language. Cambridge University Press.
4. Pinker, S. (2014). The Sense of Style: The Thinking Person's Guide to Writing in the 21st Century. Penguin Books.
5. Akmajian, A., Demers, R. A., Farmer, A. K., & Harnish, R. M. (2017). Linguistics: An Introduction to Language and Communication. The MIT Press.
6. Trask, R. L. (1999). Key Concepts in Language and Linguistics. Routledge.
7. Yuldasheva, D. (2022). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF TOURISM DIRECTIONS). Science and innovation, 1(B7), 1498-1501.
8. Yuldasheva, D. (2021). PHILOSOPHY OF LIFE-AS A DRIVING FORCE. Theoretical & Applied Science, (6), 633-635.
9. Yuldasheva, D. A. (2021). Some essential trends in teaching second language vocabulary. Academic research in educational sciences, 2(6), 782-786.
10. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
11. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. Science and World. International scientific journal, (2), 90.
12. Dilnoza, Y. (2019). About Conducting Research on the Subject of Ornithological Terms in Uzbek Language. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 53-61.
13. Yuldasheva, D. (2022). THE EMERGENCE OF NEW ECONOMIC WORDS AND PHRASES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE. 湖南大学学报 (自然科学版), 49(10).
14. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science



- and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
15. Bekmurodovna, Y. D. (2021). Organization Of Terms As A Factor for The Improvement of Economic Sciences. Eurasian Research Bulletin, 2, 82-86.
16. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 312-314.